



“BOLALAR KITOBI” RESPUBLIKA FESTIVALI

Press-reliz

Tadbirni o‘tkazish kuni va vaqti: 18-19 sentabr, 2014 yil

Tadbirni o‘tkazish joyi: Toshkent shahri, G‘afur G‘ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i, “Turkiston” san'at saroyi.

Tadbir tashkilotchilari: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi, “Sog‘lom avlod uchun” hukumatga qarashli bo‘lmagan xalqaro xayriya fondi, “O‘zdavkitobsavdota'minoti” mas'uliyati cheklangan jamiyati hamda Toshkent shahar hokimligi.

Tadbirning maqsadi va mazmuni: “Sog‘lom bola yili” davlat dasturi doirasida “Sog‘lom va ma'naviy yetuk avlod - yurt kelajagi!” shiori ostida o‘tkazilayotgan “Bolalar kitobi” respublika festivalidan ko‘zlangan asosiy maqsad mustaqillik yillarida adabiyot, madaniyat va noshirlik sohalarida qo‘lga kiritgan yutuq va marralarimizning ma'no-mohiyatini hamda bolalar adabiyotini rivojlantirish, farzandlarimiz ma'naviyatini yuksaltirishga, qadriyatlarimizni asrab-avaylash va ulug‘lashga davlat darajasida berilayotgan e'tiborni keng jamoatchilikka yetkazish;

- o‘sib kelayotgan avlodni milliy mustaqillik g‘oyalari va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, intellektual rivojlangan va ma'nan barkamol qilib voyaga yetkazishda kitobning o‘rni va ahamiyatini yanada kengaytirish, yoshlarning milliy adabiyotga bo‘lgan qiziqishini, kitobga bo‘lgan hurmatini oshirish hamda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini yanada shakllantirib borishga hissa qo‘shish;

- bolalar uchun mo‘ljallangan ijtimoiy-badiiy jihatdan yetuk adabiyotlar salmog‘ini ko‘paytirish hamda bolalar adabiyotiga ixtisoslashgan nashriyotlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashdir.

“Bolalar kitobi” respublika festivali nafaqat poytaxtda, balki bir vaqtning o‘zida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida ham o‘tkazilmoqda.

O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2014 yil 1 sentyabr holatiga ko‘ra, 108 ta nashriyot, 1750 dan ortiq matbaa korxonasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. Respublika nashriyotlari tomonidan har yili 2,5 ming nomdan ziyod, umumiy adadi 40 mln. nusxadan ortiq turli kitob mahsulotlari nashr etilmoqda. Ellikdan ortiq nashriyot bolalarga bag‘ishlangan noshirlik mahsulotlarini chop etib kelmoqda. Bugun yurtimizda nashr etilayotgan adabiyotlarning har uchtdan bittasi bevosita bolalarga bag‘ishlangan nashrlardir.

“Bolalar kitobi” respublika festivalida yurtimizda faoliyat yuritayotgan 60 dan ziyod nashriyot va matbaa korxonalari o‘z kitob mahsulotlari bilan faol ishtirok etmoqdalar.

Bayram kunlarida ishtirokchi nashriyotlar tomonidan so‘nggi yillarda chop etilgan 200 dan ziyod nomdagi yangi kitoblarining taqdimotlari, Xalq shoirlari va yozuvchilari, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari va yosh ijodkorlarning ijodiy uchrashuvlari va mushoiralar, o‘nlab taniqli va yosh-iste‘dodli adib va shoirlar hamda noshir va matbaachilar bilan muloqotlar bo‘lib o‘tadi.

Sayl tarzida tashkil etilgan festival doirasida Madaniyat va istirohat bog‘ining turli hududlaridagi maxsus maydonchalarida ishtirokchi-nashriyotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining so‘nggi yillarda nashr etilgan asarlari ko‘rgazmasi, “Sog‘lom bola yili”ga bag‘ishlangan hamda nufuzli xalqaro kitob ko‘rgazmalarida sovrinli o‘rin egallagan kitoblar taqdimotlari tashkil etiladi.

Tadbirlarda “Eng yaxshi yosh kitobxon”, “Kitobxon oila”, “Mening birinchi kitobim”, “Atrof olam muhofazasi - salomatlik garovi”, “Mo‘jiza emasdir falakda oftob, mo‘jiza aslida beminnat kitob”, “Kitob - eng yaxshi sovg‘a”, “Mening birinchi kitobim” mavzularida sovrinli intellektual o‘yin va viktorinalar, “Kitob o‘qishni yoqtirasizmi?” mavzuida ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkaziladi.

Shu bilan birga, nashriyotlar tomonidan “Bolalarga kitob o‘qishga mehr uyg‘otishda ota-onalarga maslahatlar” nomli flayerlar tarqatiladi.

Bolalar adabiyotiga ixtisoslashgan nashriyotlar tomonidan so‘nggi yillarda nashr etilgan bolalar adabiyoti, jumladan, mumtoz va eng sara zamonaviy adabiyotlar, ayniqsa, o‘quv-ma‘rifiy kitoblar, ensiklopedik lug‘at va ma‘lumotnomalar namoyishi va erkin savdosi uyushtiriladi.

Bundan tashqari, poytaxtning “Barkamol avlod” bolalar markazlari qoshidagi 20 dan ortiq to‘garaklar a‘zolarining ijodiy ko‘rgazmalari namoyishi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining “Chinor” nashriyoti tomonidan tayyorlangan “Ona-tabiatni asraylik” mavzuidagi sahna ko‘rinishlari taqdim etilib, ishtirokchilarga futbolka va kepkalar ulashiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan jalb etilgan Respublika yosh tomoshabinlar teatri, Respublika Davlat qo‘g‘irchoq teatrining spektakllaridan sahna ko‘rinishlari, kuy va qo‘shiqlardan tuzilgan konsert dasturlari namoyish etiladi.

“Bolalar kitobi” respublika festivalining ikkinchi kuni “Turkiston” saroyi sahnasida festival yakuniga bag‘ishlangan alohida ssenariy asosida tantanali konsert bo‘lib o‘tadi.

Respublika “Kitob bayrami”da poytaxt aholisi va mehmonlari sohada faoliyat yuritayotgan yetakchi nashriyotlar tomonidan tashkil etilgan ko‘rgazma stendlarni tomosha qiladilar. Shu bilan birga, bog‘ning turli joylariga o‘rnatilgan telemonitorlarda nashriyotlar faoliyatini aks ettiruvchi hamda kitobxonlik madaniyati targ‘ibotiga bag‘ishlangan videolavhalar namoyish etiladi.

Tashkiliy qo‘mita.
Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi,
Tel.: (+99871) 244-12-61, 244-32-33.
e-mail: nashr@api.uz
www.api.uz